

ARAB TILIDA KO‘MAKCHI FE‘LLARNING MORFOLOGIK TASNIFI VA GRAMMATIK XUSUSIYATLARI

Musaev Islomxon Xodi o‘g‘li,
*O‘zbekiston Davlat Jahon tillar
universiteti arab tili o‘qituvchisi*

Annotatsiya

Mazkur maqola arab tilida yordamchi fe‘llarning grammatik xususiyatlarini ochib berishga qaratilgan. Shuningdek, Mahmud Zamaxshariyning “Al-Mufassal” asarida keltirilgan kaana va axovaatuha, kaada va axovatuhaa yordamchi fe‘llarni morfologik va grammatik tahlil ko‘rinishida ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlari: ko‘makchi fe‘llar, yordamchi fe‘llar, kaada va axovatuhaa, raf holatdagi ism, nasb holatdagi xobar, afa‘l al-muqoraba, fe‘l ul-asa‘a, kada va fe‘l ul-madi.

Abstract

This article aims to reveal the grammatical features of verbs in Arabic. Also, the auxiliary verbs kaana and axovaatuha, kaada and axovatuhaa mentioned in Mahmud Zamakhshari's work "Al-Mufassal" were considered in the form of morphological and grammatical analysis.

Key words: auxiliary verbs, auxiliary verbs, kaada va axovatuhaa, noun in the case of raf, noun in the genitive case, afa‘l al-muqoraba, fe‘l ul-asa‘a, kada and fe‘l ul-madi.

Arab tilida ko‘makchi fe‘llar mavzusi juda keng va murakkab mavzulardan hisoblanadi. Ularni farqlash va tasniflashdan avval uning o‘zi haqida qisqacha ma‘lumot berish maqsadga muvofiq bo‘ladi.¹

¹ Nasirova Malika. Arab tili grammatikasining nazariy masalalariga oid qarashlar. – T.: QAMAR MEDIA, 2020. 70-b

Ko‘makchi fe‘llar deb sub‘yektning ish harakatini bildiruvchi yetakchi fe‘l bilan birga kelib, unga turlicha qo‘shimcha ma‘no beruvchi fe‘llarga aytiladi. Arab va o‘zbek tilshunoslari ko‘makchi fe‘llarga bergan ta‘riflari bir-biridan qisman farqlansada, ular deyarli farq qilmaydi.²

Bu fe‘llar ega va kesimni o‘zgartiruvchi fe‘llar tarkibiga kiritiladi. Darhaqiqat ular egani bosh kelishikda, kesimni tushum kelishigida keltiradi. Shuning uchun u bosh kelishikdagi ism, tushum kelishigidagi kesim deyiladi. Ularning noqisligi shundaki "وَقَتَّلَ" va "ضَرَبَ" kabi fe‘llarga yordamchi fe‘l bo‘ladi. Qachonki gapda kesim bosh kelishik olib, bu yordamchi fe‘llar tushurib qoldirilganida bosh kelishik bilan tushum kelishigi birga kelmaydi. (Izoh: ko‘makchi fe‘llar fe‘l-kesim bilan bog‘langanda unga qo‘shimcha ma‘no anglatadi, yoki yordamchi fe‘llardan so‘ng ega va kesim bo‘lmasa u gap bo‘lmaydi.

كاد وأخواتها		
(أقسامها)		
ما يدل على الشروع	ما يدل على الرجاء	ما تنل على المقاربة
أنشأ – طفق – غلق	عسى – أخلوق	كاد – أوشك
أخذ – وهب – بدأ	حري	كرب

[معنى «كاد، أوشك، كرب»]

قال صاحب الكتاب : ومنها «كاد» ولها اسم وخبر، وخبرها مشروط فيه أن يكون فعلاً مضارعاً متأولاً باسم فاعل، كقولك : «كاد زيد يخرج».³

"kad"ning ism va kesimi bo‘lib, kesimi ismi foilni izohlovchi hozirgi-kelasi zamon fe‘li bo‘lishi kerak. Masalan: «كاد زيد يخرج» - Zayd chiqayozdi deganiz kabi.

"kan" kabi ot-kesimni tushum kelishigi holatiga qo‘yuvchi fe‘llar toifasidan biri “af’alu-l-muqaraba”dir. Bu fe‘l sirasiga كاد، كرب، أوشك، fe‘llari kiradi. Bu fe‘llar ish

2 Ibrohimov N. Yusupov M. Arab tili grammatikasi. II jild — Namangan, 2009.-B.243

3 Sharhu al-Mufassal limahmud al-Zmkhshry.doc. Emiel Barie Yaqub. n.Dar al-kitaab al-ilmiyya.Bayrut

Lubnan.2001y.-B.376

xarakatni boshlanishiga yaqin, oz vaqt qolganini bildiradi. Af'alu-l-muqaraba fe'llaridan keyin kelayotgan kesim butun bir jumla shaklida bo'lishi mumkin.⁴ Masalan: "كَادَتْ الشَّمْسُ تَشْرُقُ" – Quyosh Sharqdan chiqay dedi.

Arab tilshunoslari ushbu jumlaning quyidagicha tahlil qiladilar:

(كاد) فعل ماض ناقص من أخوات (كان) مبني على الفتح. و (التاء) للتأنيث و (الشمس) اسم كاد مرفوع و علامة الرفع الضمة الظاهرة. (تشرق) فعل مضارع مرفوع لتجرده من الناصب و الجازم و علامة الرفع من الجملة الضمة الظاهرة. و الفاعل ضمير مستتر جوازا تقديره (هي). والجملة من الفعل والفاعل في محل نصب خبر (كاد).

"كاد" o'tgan zamon noqis fe'li bo'lib, "كان" guruhiga mansub va fatha bilan tugallanadigan, ya'ni o'z garmas fe'lidir.

"كاد" ning egasi bosh kelishikda va buning ko'rsatkichi al-damma az zoxiradir.

"شَرَقٌ" shart (jazzm) va istak (nasb) yuklamalaridan holi bo'lgani uchun darak maylidagi hozirgi zamon fe'lidir. Uning darak mayliga ishora qiluvchi belgi ad-damma az-zohiradir. Uning "الفائل" ning taqdiri هي bo'lgan (ma'nosini beruvchi) ad-damir mustatirdir. Jumla ega va fe'l-kesimdan tashkil topgan bo'lib "كاد" fe'lidan keyin tushum kelishigi holatida turadigan kesim o'rnidadir.⁵

"كاد"ga nisbatan kesim bo'lib kelayotgan jumla ko'pincha أَنْ yuklamasi bilan keladi.

"كاد" fe'li inkor yuklamasi bilan kelganda, "zo'rg'a", "deyarli" ma'nolarini bildiradi.

Masalan: لَا نَكَادُ نَفْهَمُ هَذَا

"كاد" fe'lidan so'ng asosiy fe'l hozirgi kelasi zamonda, "أَوْشَكَ" fe'lidan keyin esa "أَنْ" yuklamasi bilan istak maylida keladi.

Masalan: كَادَ الطِّفْلُ يَمُوتُ مِنَ الْخَوْفِ

"كاد" boshqa fe'llarga o'xshab agar undan oldin inkor so'zi kelsa, o'z ma'nosi va kesimining ma'nosida inkor bo'ladi. Aks holda musbat (bo'lishli) bo'ladi. كَادَ الصَّبِي

4 Nosirova M. Arab tilidagi ko'makchi fe'llarning semantik tasnifi.// Islom ziyosi. –T.: O'zXIA. 2020, №3.-B.98

5 Nosirova M. "Afyolu-sh-shuru' va l-mukoraba" fe'llari.// O'zbek sharqshunosligi buguni va ertasi. -T.: TDSHI, 2013.-B.26.

bo'ladi,الصبي الوقوع، فمقاربة الوقوع ثابتة، و لكن الوقوع نفسه لم يتحقق ning ma'nosi يقع قارب ya'ni Bola yiqilay dedi, Bola yiqilishga yaqinlashdi, yaqinlashish esa sobit, lekin yiqilish sodir bo'lmadi.

bo'ladi, لم يقارب الصبي الوقوع فمقاربة الوقوع منفية, ning ma'nosi, كما كاد الصبي يقع Agar ya'ni bola yiqilishga yaqinlashmadi, yaqinlashish esa inkor bo'lmoqda.

إذا انصرفت نفسي عن الشيء لم تكذب — إليه بوجه — آخر الدهر تقبل⁶

Agar ko'ngil bir narsadan sovub ketsa, to abad hech bir yo'l bilan unga(o'sha narsaga) qaytmaydi.

Zamaxshariy كاد يفعل» إلى «كذب»، و«كذب تفعل، إلى اكدت»، و«كذب أفعل»، fe'lini – كاد Kabi tuslaydi va (ك) harfining harakatini ba'zi arablar damma harakati bilan ham aytadilar deb ta'kidlab o'tadilar.⁷

[معنى «أوشك»]

أوشك – yordamchi fe'li ham ikki turi bo'lgan «عسى» va «كاد» fe'llarining qo'llanishi kabi qo'llaniladi.

M: "يُوشِكُ زَيْدٌ يَجِيءُ"، "يُوشِكُ زَيْدٌ أَنْ يَجِيءَ"، "يُوشِكُ أَنْ يَجِيءَ زَيْدٌ"،

[معنى «عسى»]

Ish-harakatning amalga oshish ehtimoli borligini fe'li bildiradi va bu fe'l faqat o'tgan zamon shaklida ishlatiladi. Undan keyingi fe'l yuklamasi bilan istak maylida keladi. Masalan: عسى زيدٌ أن يكذب — Ehtimol, Zayd yozar. Bu fe'lga ba'zan birikma olmoshi qo'shilib keladi va u gapning egasini bildiradi. Mas., عَسَانِي أَنْ أَرَاكَ — Ehtimol, men seni ko'rarman.⁸

قال صاحب الكتاب : منها «عسى»، ولها مذهبان: أحدهما أن تكون بمنزلة «قارب»، فيكون لها مرفوع ومنصوب، إلا أن منصوبها مشروط فيه أن يكون «أن» مع الفعل متأولاً بالمصدر، كقولك: «عسى زيد أن يخرج» في معنى: قارب زيد الخروج . قال الله تعالى: (فَعَسَى اللَّهُ أَنْ يَأْتِيَّ بِالْفَتْحِ). والثاني أن تكون بمنزلة

66 Abbas Hasan."al-Nahv ul-vafiy".Misr.2004y.

7 Sharhu al-Mufassal limahmud al-Zmkhshry.doc. Emiel Barie Yaqub. n.Dar al-kitaab al-ilmiyya.Bayrut Lubnan.2001y..-B.381

8 Ibrohimov N. Yusupov M. Arab tili grammatikasi. II jild — Namangan, 2009.-B.349

«قرب»، فلا يكون لها إلا مرفوع، إلا أن مرفوعها «أن» مع الفعل في تأويل المصدر، كقولك: «عسى أن يخرج زيد» في معنى: قرب خروجه. قال الله تعالى: ﴿وَعَسَى أَنْ تَكْرَهُوا شَيْئًا وَهُوَ خَيْرٌ لَكُمْ﴾⁹

Kitob sohibi aytadiki: "عسى"ning ikki yo'nalishi bor. Birinchisi "قَارَبَ" – yaqinlashmoq fe'li ma'nosida keladi va unda bosh va tushum kelishik shakli bor bo'ladi, lekin uning tushum kelishikda bo'lishligining sharti "أَنْ" yuklamasi fe'l bilan birga masdarni izohlab kelishi lozim. Masalan: Zayd chiqishlikka yaqin bo'ldi.

Izoh: "أَنْ يَخْرُجَ" uning ma'nosida Zayd uning bosh kelishigi "قَارَبَ" ning "عسى" mansubi.

Alloh ta'ala aytadi: ﴿فَعَسَى اللَّهُ أَنْ يَأْتِيَكُمُ الْفَتْحُ﴾ — *Shoyadki Alloh fathu nusrat bersa (Moida 52-oyat)*

Ikkinchi yo'nalishi: "عسى"ning "قَرَّبَ" ma'nosida kelishi. Bunda uning faqat bosh kelishigi bo'ladi. "أَنْ" yuklamasi fe'l bilan birga masdarni izohlab keladi. Zaydning chiqishligi yaqin qoldi (Zayd chiqish arafasida).

Izoh: عسىning قَرَّبَ ma'nosida خُرُجُهُ — خُرُجُهُ أَنْ يَخْرُجَ uning chiqishligi ma'nosida.

Alloh ta'ala aytadi: ﴿وَعَسَى أَنْ تَكْرَهُوا شَيْئًا وَهُوَ خَيْرٌ لَكُمْ﴾ -- *Shoyadki yoqtirmagan narsangiz siz uchun yaxshi bo'lsa (Baqara 216-oyat)*¹⁰

[تصريف «عسى»]

قال صاحب الكتاب: وللعرب في «عسى» ثلاثة مذاهب: أحدها أن يقولوا: «عَسَيْتَ أَنْ تفعل»، و«عَسَيْتُمْ»، إلى «عَسَيْتُمْ»، و«عسى زيدٌ أن يفعل»، و«عسى إلى عسيت»، و«عسيت»، و«عسينا». والثاني ألا يتجاوزوا «عسى أن يفعل»، و«عسى أن يفعلوا»، و«عسى أن يفعلوا». والثالث أن يقولوا: «عساك أن تفعل» إلى «عساكن»، و«عساه أن يفعل» إلى «عساهن»، و«عساني أن أفعل»، و«عسانا»¹¹.

Kitob sohibi aytadi: "عسى" fe'li uch ko'rinishda tuslanadi. Birinchi o'tgan zamon shaklida, ikkinchi turi shaxs-sonda turlanmaydi, uchunchi shakli "عسى" fe'lga birikma olmoshi qo'shiladi.

{استعمال أفعال الشروع}

9 Sharhu al-Mufassal limahmud al-Zmkhshry.doc. Emiel Barie Yaqub. n.Dar al-kitaab al-ilmiyya.Bayrut Lubnan.2001y..-B.382

10 Muhammad Sadiq Muhammad Yusuf. Tafsiri hilol. I juz. -T.: .:Hilol nashr. 2016. 135-b

11 Sharhu al-Mufassal limahmud al-Zmkhshry.doc. Emiel Barie Yaqub. n.Dar al-kitaab al-ilmiyya.Bayrut Lubnan.2001y..-B.380

"كرب" fe'llari "كاد" yordamchi fe'li kabi ishlatiladi. Masalan: «
12 «كرب يفعل»، و«جعل يقول ذاك»، و«أخذ يقول
22 قال الله تعالى : (وَطَفِقًا يَخْصِفَانِ عَلَيْهِمَا مِنْ وَرَقِ الْجَنَّةِ) الأعراف-
o'zlariga jannat barglaridan to'siq to'qiy boshladilar (A'rof-22).¹³

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nosirova M. Arab tilidagi ko'makchi fe'llarning semantik tasnifi.// Islom ziyosi. –T.: O'zXIA. 2020, №3.
2. Nosirova M. "Afyolu-sh-shuru' va-l-mukoraba" fe'llari.//. O'zbek sharqshunosligi buguni va ertasi .-T.: TDSHI, 2013..
3. Ibrohimov N. Yusupov M. Arab tili grammatikasi. II jild — Namangan, 2009.- B.349
4. Nasirova Malika. Arab tili grammatikasining nazariy masalalariga oid qarashlar. – T.: QAMAR MEDIA, 2020.
5. Nosirova M. O'rta asr arab nahvidan namunalar. – T.: TDSHI , 2004.
6. Aḥmd Muḥammad al-Hufiy al-Zamaxshariy. al-Qohira. ḍar ḍal-fikr ḍal`arobiy. 1966 yil
7. Al-Mufiyd fi al-tasrif tasnif al-shayx imam jorulloh allamatu faxrul xovarazm.
8. “Ab al-Mufid fi at-Tasrif”, shayx Imom Jar Alloh, olim, Faxr Xorazm, Mahmud, Bayan Muhammad Fattoh al-Jabboviy, 2012 y.
9. Sharhu al-Mufassal limahmud al-Zmkhshry.doc. Emiel Barie Yaqub. n.Dar al-kitaab al-ilmiyya.Bayrut Lubnan.2001y.
10. Abbas Hasan.”al-Nahv ul-vafiy”.Misr.2004y.

12 O'sha kitob.-B.381

13 Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Tafsiri hilol. I juz. -T.: .Hilol nashr. 2016. 153-b